



OGAHIY ASARLARIDA QO'SHMA SO'ZLARNING YANGI MA'NO  
QIRRALARI

Elboyev Sevarbek Ravshan oqli

**Annotatsiya:** Maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning eski o'zbek tili leksikasini boyitishga xizmat qiluvchi ko'plab so'zlar ijod qilgani, ularning har biri matnda muayyan maqsad hamda vazifaga egaligi haqidagi fikrlar ochib berilgan. Shuningdek, Ogahiyning qo'shma so'zlar ijodkori sifatidagi mahorati bir tarkibiy qism va bir tarixiy asar misolida ko'rsatishga erishilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z yasash, sodda yasalma so'z, qo'shma so'z, qo'shma so'zning tarkibiy qismi, eski o'zbek tili leksikasi.

**Аннотация:** В статье раскрываются идеи о том, что Мухаммад Реза Огахи создал множество слов, служащих для обогащения лексики староузбекского языка, и что каждое из них имеет определенное назначение и функцию в тексте. Также на примере одного компонента и одного исторического произведения продемонстрировано мастерство Огахи как создателя сложных слов.

**Ключевые слова:** словообразование, простое сложное слово, сложное слово, компонент сложного слова, лексика староузбекского языка.

**Abstract:** The article reveals the ideas that Muhammad Reza Ogahi created many words that serve to enrich the lexicon of the old Uzbek language, and that each of them has a specific purpose and function in the text. Also, Ogahi's skill as a creator of compound words has been demonstrated on the example of one component and one historical work.

**Key words:** word formation, simple compound word, compound word, component of compound word, lexicon of the old Uzbek language.

Ogahiyning o'zbek tili lug'at boyligini oshirishdagi xizmatlaridan biri daho adib tomonidan tilimizda qator yangi sodda, yasama va qo'shma so'zlar ijod qilgani, ularni o'z asarlarida mahorat bilan qo'llaganidir. Masalan, "oq va mayin junli hayvon" [ANATIL, 1985: 71] ma'nosidagi qoqum//qoqim so'zi Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan va shu hayvon mo'ynasidan ishlangan po'stin ham qoqum deb nomlangan. Ogahiyda mazkur so'z asosidagi "qoqum kiygan" va majozan "oq bilan qoplangan" ma'nosida qoqumpo'sh yasalmasi mavjud bo'lib, bu bilan o'zbek tili otdan yasalgan bitta sifat bilan boyigan. Qoqum oqsichqon – oqsuvsar, uning terisi va mo'ynasi. [PRS, 2: 253] Qoqum sobol (suvsar) kabi kichik jussali hayvon bo'lib, terisi oq va dumining uchi qora bo'ladi. "Muqaddimatu-l-adab"da os–"po'sti va juni yumshoq, dumining uchi qora bir hayvon; fanah, fanak"deb izohlangan. [Zamaxshariy, 2018: 287] Terisi nihoyatda oq va muloyim bo'lib, undan po'stin qilingan. Bunday po'stin qimmatbaho hisoblangan. Bu so'z Navoiy, Firdavsiy, Nizomiy asarlarida bir necha o'rinda uchraydi. "Burhoni qote"da qoqum "oq va nihoyatda issiq po'stin bo'lib, aslzodalar kiyishgan", – deb izohlanadi. [BQ: 1516] Uning "kun" ma'nosi shu tariqa metafora orqali yuzaga kelgan. Qoqum kunduzga, qunduz esa tunga qiyoslangan. Qoqum rangi



nihoyatda oq bo'lganidan qoqumandom – qoqum tanli so'zi majozan mash'uqa ma'nosini anglatgan:

Qoqumandomro ishorat kard,

To shavad suyi parda rohnava. (Xusrav Dehlaviy)

Tarjimasi: “Mash'uqasiga parda tomon kelishini ishorat qildi”.

Shuningdek, qoqumoraz – qoqum yuzli so'zi ham chiroyli, go'zal

ma'nolarini anglatgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazkur zoonim kam iste'mol so'zlardan sanalib, Ogahiy tarixiy asarlari leksikasida faqat bir marta – “Riyoz-ud-davla”dagi qoqumpo'sh so'zi tarkibida uchraydi. Qoqumpo'sh so'zi aynan qoqum kiygan degan ma'noni anglatadi. Mumtoz adabiyotda bu so'z majozan tongni anglatgan. Quyidagi parchada qoqumpo'sh sifati oppoq qor bilan qoplangan zaminni tavsiflaydi: “Hamul kecha abri nilgun lashkari mahsharnamun g'uboridek havo yuzin tutub, yuz sho'ru angiz bila andoq zamharirrezlik rusumin zuhurg'a yetkurdikim, olam fazosin kofurjo'sh va ajzosin qoqumpo'sh qildi”. [RD, 272a]

Ogahiy asarlari leksikasi uchun xos xususiyatlardan biri ularda ma'lum lug'aviy birliklar orqali ko'plab yangi yasalmalar hosil qilinishidir. Ana shunday qo'shma so'z komponentlaridan biri dastgoh so'zidir. Eski o'zbek tilida 1) dastgoh; qudrat va imkoniyat; davlat, boylik; asbob: 2) amal, martaba: 3) vaj, sabab [ANATIL,1983: 465-466] ma'nolaridagi mazkur so'z Ogahiy asarlarida qator yangi so'zlar yaslashida xizmat qilgan. Bunda dastgoh so'zining qayd etilgan ko'plab ma'nolari yasalma asosi bo'lgan. Uning qaysi ma'nosi yasalma asosi bo'lganligi qo'shma so'z lug'aviy ma'no yoki ma'nolariga bog'liqdir. Muhimi, bunday so'zlar matnda muayyan badiiy vazifani ham bajarishi e'tiborga olingan. Buni birgina “Gulshani davlat” misolida ko'ramiz. Masalan, Risolatdastgoh – payg'ambarlik davlati bilan maxsus inson, payg'ambarlik maqomi martabasi ulug'langan shaxs: “...ul shahanshoi risolatdastgohning turbati muattarig'a munosib va muqarrardur,.. [Ogahiy, 6, 2020:4]. Payg'ambarlik deb izohlangan qo'shma so'zning birinchi komponenti risolat aslida xos ma'noga ega va o'zining sinonimi nubuvvat bilan nozik ma'no farqlari mavjud va ana shu nozik ma'no tavofuti asosida nabiy va rasul istilohlari farqlanadi. [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2018: 264 – 266] Shuning uchun mumtoz adiblarimiz asarlarida mazkur atamalar o'z o'rnida qo'llanilganiga e'tibor qaratishimiz lozim. Masalan, Alisher Navoiy “Badoye' ul bidoya” muqaddimasidagi “...risolat burjining munir axtari va nubuvvat durjining samin gavhari...” – deb yozadi. [Alisher Navoiy, 1987: 11]

Karamdastgoh – karamni kasb etgan, karam koriga aylangan:

Ayo, shahriyori karamdastgoh,

Adolat shioru asolatpanoh. [Ogahiy, 6, 2020: 16]

Yoki “Emdi sof ko'ngul va orig' niyat bila hazrati podshohi karamdastgohga qabul tushgudek xizmat qilg'umizdur” [Ogahiy, 6, 2020: 206] Najobatdastgoh – ulug' martabali, aslzoda: “...sayodatpanoh, najobat dastgoh, muallomakoni fazilatnishop Qubbodxon xo'ja...”[Ogahiy, 6, 2020: 55] Ushbu o'rinda sayodatpanoh va najobatdastgoh so'zlari bir tomondan ichki ohangdoshlik va ikkinchi tomondan murodifikni ta'minlagan. Binishdastgoh – uzoqni ko'ruvchi, farosatli, tefahm: “donishpanoh, binishdastgoh Ibodulloh yuzboshikim, sadoqat maslaki soliklarining yo'ldoshi, shijoat maydoni



chobuklarining qo'ldoshi..." [Ogahiy, 6, 2020: 56]. Bu o'rinda donishpanoh va binishdastgoh sifatlarining mavsum (Ibodulloh) bilan hamohangligi yuzaga keltirilgan. Shu tariqa donishpanoh va binishdastgoh so'zlari ichki ohangdoshlikni ta'minlagan bo'lib, yuzboshi, yo'ldoshi, qo'ldoshi so'zlari orqali jumladagi ikkinchi ohangdoshlik silsilasi yaratilgan. Quyidagi parchada ham shu holatni ko'rishimiz mumkin: "Ul asnoda arkoni davlat akobiridin shijoatpanoh, jalodatdastgoh, muborazat ahlining qo'ldoshi Abdulloh mingboshi hamul voqeani mushohada qilib..." [Ogahiy, 6, 2020: 215] Ixlosdastgoh – ixlosni kasb qilgan, chin ixlosli: "... ixlosdastgoh va jalodat iqtinoh mulozimlari zumrasidin Niyozmuhammad yuzboshi va Muhammadnazarbek..."[Ogahiy, 6, 2020: 74] Ushbu parchada ham ixlosdastgoh va jalodatiqtinoh so'zlari ichki ohangdoshlikka xizmat qilgan. Mahshardastgoh – mahshar ko'rinishli, qiyomat asar, qo'shinga nisbatan ko'psonli, Ogahiy o'zi ta'riflagandek, "haddin afzun va qiyosdin berun" lashkar: "...sipohi mahshardastgoh hamrohliqi bila..."[Ogahiy, 6, 2020: 86]: Faxomatdastgoh – ulug'vor, ulug'vorlik kasb etgan, kibor: "...dargohi gardunishtibohning shavkatpanoh, faxomatdastgoh mulozimlari a'ozimidin... Yaxshimuhammad dorug'a..." [Ogahiy, 6, 2020: 116] Mazkur matnda dargoh, gardunishtiboh, shavkatpanoh, faxomatdastgoh so'zlari ichki ohangdoshlik silsilasini yuzaga keltirgan. Shijoatdastgoh – jasurlik, shijoatni kasb etgan, botir, yovqur: "Ul holda hazrati xadivi beahmolning xizmatida muqarribi dargoh, sipahbadi shijoatdastgoh Rahmatulloh yasovulboshi davlat yanglig' hozir erdi" [Ogahiy, 6, 2020: 157] Ko'rinadiki, ushbu o'rinda shijoatdastgoh sifati mavsum (sifatlanayotgan narsa yoki shaxs) bo'lmish Rahmatulloh ismiga moslangan. Bu uslub Ogahiy, umuman, o'zbek mumtoz adiblari asarlarida ko'p qo'llanadi. Zafardastgoh – g'alabani kor qilgan, mudom g'olib: "G'ozibodning oshoqida Ismat bog'i otlig' mavze' asokiri gardunmuosirg'a muaskar va borgohi zafardastgohg'a mustaqar bo'ldi". [Ogahiy, 6, 2020: 158]

Bu o'rinda esa zafardastgoh orqali forsiy izofaga kirishgan ikki so'z ohangdoshligi ta'minlangan. Muzof va muzofun ilayh ohangdoshligi ham Ogahiy asarlarida juda ko'p qo'llanilgan uslub sanaladi. Muvohadatdastgoh – ittifoqqa undovchi, yakdillikka yo'g'rilgan: "Maktubi muhabbat va muvaddatpanoh, xil'atu musodaqathamroh, muvofaqatu muvohadatdastgoh, yamut xalqining eshonu ulamosi, ulug'u kichik barcha kadxudosig'a duo-yu salom adosidin so'ngra ma'lum bo'lsun..."[Ogahiy, 6, 2020: 162] Bu o'rinda muvaddatpanoh, musodaqathamroh, muvohadatdastgoh so'zlari saj'ni yuzaga keltirmoqda. Quyidagi parchada ham izzatdastgoh (izzatli, aziz), manzilatdastgoh so'zlari yuqorida bir necha misollar orqali ko'rganimiz kabi ichki ohangdoshlikni yuza keltirmoqda: "Va dargohiolampanoh mulozimlaridin izzatdastgoh Otaniyozbekni elchilik tariqasi bila anga rafiq etib, amir Nasrulloh uchun musodaqatnoma topshurub, Buxoro savbig'a irsol qildi. Va ma'lum bo'lsunkim, ushbu yil, muharram oyining avositida vizaratpanohi manzilatdastgoh, dasturi sadoqatasar Muhammad Rahim mehtar..." [Ogahiy, 6, 2020: 185]

Sharofatdastgoh – sharofatli, ulug', mukarram: "... mazkur amirning muhabbat tushub maktubin podshohona hadya va tansuqoti bila hazrati podshohona gardunpoygohning huzuri sharofatdastgohiga yetkurub, navozishi xusravonadin bahramandlig' topti".

[Ogahiy, 6, 2020: 258] Asolatdastgoh – aslzoda, asl nasabli: "... hamul safarda amoratpanoh, asolatdastgoh Bog'ibek beklarbegi ibn shahzodayi oliyshoni jannatmakon



Rahmatullohberdi...”[Ogahiy, 6, 2020: 299] Ma’dalatdastgoh – adolatli, odil, odillikni kasb qilgan:

Ayo, xusravi ma’dalatdastgoh, -

Najobat sipehrida raxshanda moh.[Ogahiy, 6, 2020: 312]

Mazkur tarkibiy qism, shuningdek, atoqli otlar asosida ham asos epik nom egasi anglatgan timsollarga bog’liq ravishda sifatlar yasashga xizmat qilgan. Masalan, afsonaviy Jamshid nomi bog’liq ravishda jamdastgoh ulug’; huzur-halovat egasi kabi ma’nolar anglatadi:

Qani Qalchidayxoni jamdastgoh

Ki, qo’ngrot eliga edi podshoh? [Ogahiy, 6, 2020: 314]

Qayd etilgan misollar Ogahiyning o‘zbek tili tarixiy leksikasini boyitishda o‘ziga xos xizmatlarining bir qirrasiga e’tibor qaratishimiz lozim ekanini ko’rsatadi. Bunda, albatta, har bir so‘zning matndagi muayyan ma’no va vazifasini nazardan qochirmaslik kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий, 1987 – Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1987.
2. АНАТИЛ, 1983 – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, I том. – Тошкент: Фан, 1983.
3. АНАТИЛ, 1985 – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, IV том. – Тошкент: Фан, 1985.
4. БҚ – Шамсуддин Муҳаммад бин Халаф Табризий. Бурҳони қотеъ. Бо эҳтимоми доктор Муҳаммад Муъин. – Техрон: Амири кабир, 1997.
5. Замахшарий, 2018 – Маҳмуд Замахшарий. Муқаддимат ул-адаб. I жилд. Исми боби. Нашрга тайёрловчилар А.Ўрозбоев, А.Матниёзов, Л.Абдукаримов. – Тошкент: Наврўз, 2018.
6. Огаҳий, 6, 2020 – Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 6-жилд. Гулшани давлат. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент: Sharq, 2020.
7. ПРС, 2 – Персидско-русский словарь, том 2. – Москва: Русский язык, 1983.
8. РД – Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Риёзу-д-давла. Абу Райҳон Беруний номли Шарқшунослик институти. Асосий фонд. №5364 // II.
9. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф, 2018 – Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Сунний ақидалар. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2018.